



Sumbula MAHMUDOVA,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:sumbulamakhmudova@bk.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T. Egamberdieva taqrizi asosida

SOCIO-PEDAGOGICAL NEED TO INCREASE THE SOCIAL COMPETENCE OF FUTURE MUSIC EDUCATION TEACHERS

Annotation

The article discusses the importance of spiritual and moral education of students in higher educational institutions, the role and importance of music in increasing their social activity, the influence of musical heritage in the education of the younger generation, the importance of songs praising etiquette, morality, faith, conscience, correctness, honesty, devotion to the Native Land, love of the Motherland, its appreciation, honoring the hand, being in the service of the people, respect for parents, Mother-Nature and other similar universal qualities.

Key words: Harmonious generation, social life, social activity, social attitude, socially active personality, musical culture.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье высказано мнение о роли и значении музыки в духовно-нравственном воспитании молодежи, повышении ее социальной активности в высших учебных заведениях, о влиянии музыкального наследия на воспитание подрастающего поколения, о нравственности, нравственности, вере, совести, правоте, правдивости, честности, преданности Родине, любви к Родине, уважении к ней, воспитании патриотизма и любви к Родине. речь идет о значении песен, прославляющих прославление, служение народу, почитание родителей, почитание матери-природы и других подобных общечеловеческих качеств.

Ключевые слова: Гармоничное поколение, социальная жизнь, социальная активность, социальное отношение, социально активная личность, музыкальная культура.

BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARI IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI

Annotatsiya

Maqolada oliv ta'lrim muassasalarida talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan to'g'ri tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolliklarini oshirishda musiqaning o'rni va ahamiyati xususida fikr bildirilib, musiqiy merochning yosh avlod tarbyasidagi ta'siri, odob, axloq, iymon-e'tiqod, vijdon, to'g'rilik, rostgo'ylik, halollik, Ona vatanga sadoqat, vatanni sevish, uni qadrlash, elni ulug'lash, xalq xizmatida bo'lish, ota-onani hurmat qilish, ona-tabiatni e'zozlash va boshqa shu kabi umuminsoniy fazilatlarni madh etuvchi qo'shiqlarning ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Barkamol avlod, ijtimoy hayot, ijtimoiy faollik, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy faol shaxs, musiqa madaniyati.

Kirish. Jahon ta'lrim muassasalarida milliy musiqa asarlari asosida talabalarning akmeologik motivatsiyasi, shuningdek ijtimoiy faolligini oshirishning kreativ mexanizmlari ta'lrim jaraeniga tatbiq etilgan. Jahon miqyosida talabalarni mustaqil hayotga, global axborot muhitiga ijtimoiylashuv jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan korretsiyon texnologiyalar amaliyotga tadbiqu etilgan. YUNESKOning Inchxon deklaratsiyasi va "Ta'lrim-2030" xalqaro harakat dasturida "barcha uchun keng qamrovli, haqqoniy sifatli ta'lrim va butun hayoti davomida ta'lrim olishini rag'batlantirishni ta'minlash" masalalari musiqa ta'limida ham dolzarb hisoblanmoqda[1]. Bu borada BMTning Ta'lrim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha YuNESKO maxsus tashkilotining yurtimizdag'i tarixiy obidalar, qadimiy shaharlar bilan birga, e'zma va xalq og'zaki ijodieta, katta ashula hamda "SHashmaqom" musiqasining insoniyat nomoddiy madaniy merozi reprezentativ ro'yxatiga kiritilishi, "SHarq taronalari" an'anaviy xalqaro musiqa festivalining o'tkazilib kelinishini alohida ta'kidlash zarur. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasida milliy maqom asarlарining o'rganilishi va uni keng targ'ib etish bo'yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonning ta'lrim va ilmiy muassasalarida musiqa ta'limi asosida talabalar ijtimoiy faoligini rivojlantirish, musiqa san'atining nazariy va amaliy masalalarini targ'ib etish, yuksak ijro mahorati asosida yuqori pedagogik natijalarga erishish, talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoxda. SHu bilan birga, zamonaviy metod va texnologiyalarni milliy maqom ta'limi jaraeniga adaptatsiyalash, ustoz-shogird an'analari asosida maqom san'atini o'rgatishga oid tizimlashtirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoxda.

Mamlakatimizda talaabalarga musiqa ta'liming ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda ularning ijtimoiy faolligini oshirish uchun keng sharoitlar yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida milliy musiqani o'rganishni yangi talablar nuqtai nazaridan tahsil qilinishi va qayta ko'rib chiqish belgilangan. Natijada, musiqa ta'limi orqali e'shlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, intellektual salohiyatli, mustaqil fikrlay oladigan va yuksak ma'naviyatli shaxslar sifatida tarbiyalashda keng imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi"[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Respublikamizda davlat va jamiyat hayotini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlarimizda har tomonlama yetuk barkamol avlodni shakllantirish va tarbiyalash muhim ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Aynan, bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida xalqimizni mana shunday ezgu g'oyalar sari dadil odimlayotganligini teran anglash mumkin. Ayniqsa, "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida O'zbekiston taraqqiyotining yangi davriga kirib kelgani, jamiyatda olib borilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar eng, avvalo, yurtimiz taraqqiyotiga zamin yaratib, ilm-fan, ta'lim-tarbiya sohalaridagi integratsiya, xususan, zamonaviy olyi ta'limni rivojlantirish borasidagi islohotlar buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda[3].

Yurtimizda olyi ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy faolligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashga doir yangi pedagogik vositalarni ishlab chiqish, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyatni samarali tashkil etish malakalarini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ijtimoiy faollikni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida talabalarda axloqiy-estetik dunyoqarash va siyosiy ijtimoiylashuvni qaror toptirish alohida e'tirof qaratilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy faollikning pedagogik mexanizmlari sifatida talabalar axloqiy, kasbiy va kommunikativ tayyorgarligining ma'naviy-madaniy asoslari, taraqqiyot g'oyalariga ongli munosabati, texnokratik fikrashini rivojlantirish muhim o'rinn tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning farmon, asar va nutqlari, Vazirlar Maxkamasi hujjatlari, Olyi va o'rta maxsus ta'limi, Xalq ta'limi tizimining qator hujjatlarining mazmuni yoshlarning ijtimoiy faolliklarini oshirish borasida amalga oshirilayotgan barcha ishlarining qonuniy va konseptual asoslari bo'lib, bu g'oyalarini amalga oshirish jarayonida olyi ta'lim muassasalari muhim rol o'yaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi «O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3391-sonli qarori e'lon qilindi[4]. Ushbu qaror nafaqt xalqimiz, balki butun dunyo musiqa madaniyatiga tamal toshimi qo'yan o'lmas mumtoz musiqa san'atini saqlash, qadrlash va kelajak avlodga asl holatidek yetkazishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Prezident qarori bilan barcha ta'lim tizimida maqom san'atini chuqur o'qitish, shu asosda talaba-yoshlarning tarbiyalash, ularning jamiyatdagi ijtimoiy faolliklarini yanada oshirish kabi dolzarb masalalar qo'yilganligi, musiqa madaniyatiga bo'lgan katta e'tibordir.

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tishmiz joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlandi[5]. Shuningdek, "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori asosida O'zbekiston bolalar musiqa va san'at maktablari binolari qayta ta'mirdan o'tdi va yangidan qurildi[6].

Mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirishning maqsadli yo'naltirilganligini xalqimiz estetik madaniyati, didi

va tafakkurini rivojlantirishdagi yuksak madaniy hodisa sifatida baholash mumkin. Musiqa san'ati vositasida yoshlarni ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash masalalariga ham ustuvor ahamiyat berilgan. Zero, musiqa insonning faqat hursandchilik kunlarida emas, balki boshqa estetik faoliyatida ham unga kuch-quvvat, ruhiy madad beradi, hayotga, yashashga, ijodga va go'zallikdan bahrmand bo'lishiga chorlaydi. Bundan tashqari, haqiqiy san'at asarlari, xususan, go'zal musiqa umumbashariy tilga ega bo'lib, ular barcha xalq, elat va millatlarga tarjimonisz badiiy-estetik zavq bag'ishlash xususiyatiga ega.

Tahlil va natijalar. Olyi ta'limda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining ijtimoiy kompetentliligin takomillashtirish zarurati bir qator ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va pedagogik omillar bilan belgilanadi. SHuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijtimoiy kompetentliligin tashkil etishda musiqliy san'at va pedagogikaning integratsiyalashuvni bo'lgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining kelajakdag'i pedagogik faoliyatini tarkibiy qismalarining butun majmuasi hali to'liq aks ettirilmagan. Shu tufayli olyi ta'limda musiqa o'qituvchisi tayyorlash tizimi juda murakkab bir qator (musiqiy pedagogik, amaliy va nazariy, uslubiy, dirijor, vokal-xor, instrumental ta'lim) komponentlarni o'z ichiga oladi. SHu bilan birga, pedagogik ilm-fanning zamonaviy darajasi bo'lgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining ijtimoiy faollik jarayonining alohida jihatlarini o'rganish uchun integral yondashuv zarur.

Olyi ta'limda o'qituvchining ijtimoiy faolligini oshirish davlat va jamiyatning muhim vazifasidir. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining ijtimoiy kompetentsiyalarini takomillashtirish mazmuni va texnologiyasi asosan aniq shartlar, ta'lim mafkurasi, ustuvor ijtimoiy qadriyatlar bilan belgilanadi. Ijtimoiy faollik haqida ham shunday deyish mumkin: undagi o'zgarishlar jamiyatning rivojlanishi, ta'lim tizimi rivojlanayotgan sharoitlar bilan bog'liq.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining asosiy kompetentsiyalari. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak:

- talabalar bilan birgalikda "ta'lim bo'shilqlarini" mustaqil ravishda to'ldirib o'rganish;
- talabalarning musiqliy ijrochilik va mustaqil faoliyatini realjashtirish va tashkil etish;
- o'quvchilar bilan turli tadbirlar tashkil qilish va tadbirda qatnashgan o'quvchilarini rag'batlantirish;
- faoliyatni tashkil etishning turli shakllaridan, shu jumladan o'quvchilarini turli xil ish va faoliyatlariga jalb qilib, ularning moyilligi, o'ziga xos xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini" baholash".
- muloqot va muhokamalar rejimida darslarni olib borish, o'quvchilar muhokama qilinadigan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini va musiqiy ijrochilikni ifoda etishni istagan muhitni yaratish, nafaqat bir-birlari bilan, balki o'qituvchi bilan ham o'z musiqiy ijrochiliklarini ham so'roq qilish va tanqid qilish mumkin;
- ijrochilik malakalariga ega bo'lish va ularni o'quv jarayonida qo'llash;

Ijtimoiy kompetentsiyasi yuqori bo'lgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisini tayyorlash ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axborot – kommunikatsiya makoniga moslasha oladigan shaxsni shakllantirishga qaratilgandir.

Olyi ta'lim muassasalarida ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashda musiqa tarbiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Talaba-yoshlarni musiqa mashg'ulotlari asosida tarbiyalashda nafosat, musiqa fiziologiyasi, musiqiy psixologiya kabi qator fanlarning tajribalariga tayanish lozim. Chunki musiqa inson ruhiyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, unga eng oson ta'sir etuvchi kuch hamdir[7].

Ta'kidlash lozimki, musiqaning inson estetik dunyoqarashiga ta'siri, voqelikni estetik o'zlashtirishdag'i

ahamiyati, shaxsda yuksak badiiy-estetik didni shakllantirish, jamiyat a'zolarining estetik ideallarini tarbiyalash bilan bog'liq ishlarning umumnazariy masalalariga yangicha yondashuvlar shakllandi. Endilikda musiqa nafaqat san'at turi balki, u tarbiya vositasi, jamiyat barqarorligini ta'minlovchi kuchga aylandi. Musiqa shu nuqtai-nazardan qaralganda, bugungi kunda uning falsafiy mohiyatini o'rganish va estetik mazmunini tadqiq etishga bo'lgan ehtiyoj yanada ortganligini ko'rish mumkin. Bu jarayon, o'z navbatida, musiqa va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini estetikaning umumnazariy masalasi sifatida o'rganishni taqozo etadi[8].

Musiqa inson o'rganadigan fanlar orasida o'z o'rniga ega va insonning hayotiy dunyosini, uning tabiiy, ijtimoiy va faoliyat imkoniyatlarini takomillashtirishga harakat qiladi. Musiqa ijtimoiy munosabatlarda zaruriy ilmiy asosni mustahkamlash, shaxsning turli yashash joylarida o'ziga xos tarzda rivojlanishi uchun qulay axloqiy-psixologik sharoitlar yaratishga yordam beradi. Hozirgi vaqtida globallashuv va integratsiya jarayonlari birinchi o'rinda turadi, millatlararo, ijtimoiy-madaniy hamkorlik, ta'lim sohalari shaxsiy ma'nolar bilan to'ldirilgan holda yangi turda tasdiqlanadi. Shaxsning yashash joyidagi muhit, uning ijtimoiylashuvni, axloqiy munosabatlari, xulq-atvori va muloqot qobiliyatlari, ijtimoiy faoliyat tajribasiga faol ta'sir ko'rsatadi[9].

Ibn Sino musiqanigan kelib chiqishini inson nutqining boyligi bilan bog'laydi: xushomad qilayotganda ovoz pasayadi, mag'rur so'zlayotganda, qat'iy jaranglaydi. U musiqani inson kayfiyatiga taqliddir, deydi[10]. Sharq olimlari musiqani dastlab falsafa ilmlaridan biri, deb hisoblaganlar va qomusiy asarlar tarkibiga kiritganlar. Bunda ular shubhasiz, musiqaning badiiy-estetik kuchi va ijtimoiy tarbiyaviy rolini hisobga olgan edilar[11].

Musiqaning hayotbaxsh jozibasi, qudratli ta'sir kuchi, ayniqsa ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashdagi bunyodkor kuchi haqida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov quydigilarni ta'kidlagan: «... agar insonning

qulog'i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxiroqibatda bunday odam «Shashmaqom» singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi»[12].

Ma'lumki, o'zbek xalq musiqasi ham boshqa xalqlar musiqasi singari kishilarni g'oyaviy-estetik jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyatiga ega. Bular orasida an'anaviy xalq musiqasi kishiga tez ta'sir etishi, oson qabul qilinishi va insonning tashqi olamga ijtimoiy munosabatini shakllantirish xususiyatiga ega. Bundan tashqari, xalq musiqasi kuy-ohanglarning tabiiyligi va soddaligi bilan ham ajralib turadi.

Musiqa ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini aks ettirish imkoniyatiga ega. U bir vaqtning o'zida ham epik, ham lirik, ham dramatik ohanglarda jaranglashi bilan insonda estetik zavqni paydo qildi. Ayniqsa, uning ifodali-obrazli tabiati ko'proq lirikaga yaqinligi bilan ajralib turadi. Ayni paytda, lirika musiqaning estetik asosini tashkil etadi. Shuningdek, musiqa inson estetik olamidagi ezgu orzu-umidlarni bevosita va bivosita aks ettiradi: u insondagi eng yaxshi tuyg'u va fazilatlarni namoyish etishga qodir.

Shuni unutmasligimiz kerakki, oliy ta'llim muassasalarida talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda musiqaning o'rnii nihoyatda katta va o'ta ahamiyatlidir. Bu jarayonni ayniqsa, xalq qo'shiqlarida ko'proq ko'rish mumkin. Xalq qo'shiqlari shu qadar tarbiyaviy kuchga egaki, undan turli maqsadlarda foydalanish ko'p hollarda ijobji natija beradi. Jumladan, yoshlarni badiiy yetulklik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini bir qator tartibga soladi. Bunda talabalar xalq qo'shiqlarining badiiy-g'oyaviy mazmunini chuqur his etadi, uni tushunib yetadi, tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

- Инчхонская декларация Образование-2030: обеспечение всеобщего инклюзивного и справедливого качественного образования и обучения на протяжении всей жизни. Инчхон, Республика Корея, 21 мая 2015 год.
- Мирзиёев Ш.М. Миллый тикланишдан – миллый юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б.344
- Мирзиёев Ш.М. Миллый тикланишдан – миллый юксалиш сари. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020. – 456 б.
- <https://lex.uz/docs/> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Каори, 17.11.2017 йилдаги ПК-3391-сон
- <https://lex.uz/docs/O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.11.2018 yildagi PQ-4038-son>
- <https://lex.uz/docs/O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.05.2016 yildagi 144-son>
- Умарова М. Баркамол авлод тарбиясида миллый мусиқанинг ўрни ва аҳамияти. “Science and Education” Scientific Journal Vol. 1. July 2020. – Б. 246-250.
- Qodirova D.S. O'zbek milliy musiqasining estetik xususiyatlari. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqqid etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2012. – Б. 4. (- 28 б).
- Ortiqov T. Musiqa o'qitish metodikasi. – T.: Muhammarr nashriyoti, 2011. - 196 b.
- Abdulla Sher, Bahodir Husanov, Erkin Umarov. Estetika. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: O'zMU, 2008. – 48 b.
- Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: San'at, 2006. – 19 b.
- Ислом Каримов. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2015. – Б. 143.